

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	5
N.M.O'rinova, M.A.Qodirjonova	
Talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samarali usullari.....	9
D.M.Begmatova	
Individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish jarayonida foydalaniladigan texnologiyalarni tanlash tamoyillari	14
Kh.O.Jurayev D.Kh.Fayziyeva	
The role of media competence in the work of a teacher	18
D.G.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning nazariy jihatlarini	22
F.I.Sharipova	
Tibbiyot oliygohlarida ingliz tilining akademik yozish o'qitish masalari	26
M.A.Tuxtabayev	
Janubiy Koreya ta'lim tizimida muhandislik kadrlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi.....	33
S.R.Uraimov, M.Sh.Abdubannobov	
Umumiy ta'lim maktablarida interaktiv trenajyorlardan foydalanish orqali jismoniy mashg'ulotlarni takomillashtirish.....	37
S.R.Uraimov S.G'.G'ofurov	
Umumiy ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya uchun innovatsion mobil ilova yaratish va uning samaradorligini o'rganish	41
S.B.Qodirov	
Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari	46
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy ideallar vositasida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	50
D.A.Abdusamiyev	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida shaxs sifatida shakllanishi va uning maktab muhitiga moslashishi.....	55
A.X.Gafforov	
Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarni loyiha metodi asosida tashkil etishda raqamli ta'lim resurslarini qo'llash	59
F.V.Xalilov	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari.....	63
A.M.Mirzakulov, G.I.Yuldasheva	
Analogik muhitda kinematik hodisalarning simulyatsiya modellarini yaratish va o'qitish metodikasi.....	67
S.R.Toshboyeva, S.I.Usmonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diagrammalar asosida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.....	72
M.E.Yulchiev	
Psychological and pedagogical foundations for establishing an integrative e-learning environment in energy-related technical education.....	76
M.O.Ismoilova	
O'quvchilarda kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirish usullari	81
U.I.Obidjanov	
Biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalarning roli va imkoniyatlari	85
A.M.Tishabaev	
1991-2005-yillarda O'zbekistonda milliy va ommaviy sport turlarining rivojlanishi.....	91



UO'K: 377:004

MAXSUS FANLARDAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI LOYIHA METODI ASOSIDA TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI QO'LLASH**ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО СПЕЦИАЛЬНЫМ ДИСЦИПЛИНАМ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОГО МЕТОДА****THE USE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN THE ORGANIZATION OF PRACTICAL CLASSES IN SPECIAL DISCIPLINES BASED ON THE PROJECT METHOD****Gafforov Alisher Xolmurodovich** 

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Metrologiya va standartlashtirish" kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Maqolada professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarni loyiha metodidan foydalanib tashkil etishda raqamli ta'lim resurslardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. O'quvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etishda bunday resurslarning imkoniyatlari bayon etilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены вопросы использования цифровых образовательных ресурсов при организации практических занятий по специальным дисциплинам в профессиональных учебных заведениях с использованием проектного метода. Описаны возможности таких ресурсов в организации проектной деятельности учащихся.

Abstract

The article discusses the use of digital educational resources in the organization of practical classes in special disciplines in professional educational institutions using the project method. The possibilities of such resources in organizing students' project activities are described.

Kalit so'zlar: loyihaviy faoliyat, loyiha metodi, loyihaviy o'qitish, raqamli ta'lim resurslari, ijodiy faoliyat.

Ключевые слова: проектная деятельность, метод проектов, проектное обучение, цифровые образовательные ресурсы, творческая деятельность.

Key words: project activity, project method, project training, digital educational resources, creative activity.

KIRISH

Zamonaviy davr bilimlarning jadal yangilanishi, yangi kasblarning paydo bo'lishi, kasbiy malakani doimiy oshirib borish zaruriyati bilan xarakterlanadi. O'zgarib borayotgan dunyoda ta'lim tizimi, professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarida tashabuskorlik, mobillilik, ijodkorlik, konstruktivlik kabi yangi sifatlarni shakllantirishi kerak. Zamonaviy o'quvchi umri mobaynida bilim olishga intilishi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish imkoniyatlari xususida yetarli bilimga ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmonida professional ta'limni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan [1].

Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda va belgilangan vazifalarni amalga oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday innovatsion ta'lim texnologiyalaridan biri loyiha metodi bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari professional ta'lim muassasalarida o'qitishning loyiha metodi an'anaviy o'qitish shakllariga (ma'ruza-amaliy, sinf-dars tizimlari) qo'shimcha sifatida foydalanilmoqda va ta'limning deyarli barcha mavjud darajalariga tegishli loyihalar ishlab chiqilgan [2:176].

M.N. Guslovaning ta'kidlashicha, maxsus fanlardan o'quvchilarning loyihaviy faoliyatni tashkil etish jarayonida zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Xususan, loyiha metodi asosida maxsus fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalari vositalarini qo'llash natijasida kompyuter texnikasi bilan axborot faoliyatini amalga oshirishda ta'lim oluvchilarda o'ziga xos bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga, shuningdek vizual, intuitiv hamda ijodiy fikrlash turlarini rivojlantiradi [4:126].

Loyiha metodi – bu muammoni (texnologiyani) ishlab chiqish orqali didaktik maqsadlarga erishish usuli bo'lib, u amaliy jihatdan real natija bilan yakunlangan va rasmiylashtirilgan faoliyatdir [6:26].

Loyiha metodi – bu o'quv - bilish usullari tizimi bo'lib, ta'lim oluvchilarga u yoki bu muammoni mustaqil ravishda yoki hamkorlikda guruhda yechish imkonini beradi [3:73].

NATIJA VA MUHOKAMA

Loyiha metodining asosiy vazifasi – o'quvchilar tomonidan amaliy masalalarni yoki muammolarni yechish jarayonida turli predmet sohalardan talab etilgan bilimlarni integratsiyalash va mustaqil egallash uchun imkoniyatlarni taqdim etishdir. Agar loyiha metodini pedagogik texnologiya sifatida qaraydigan bo'lsak, unda ushbu texnologiya mazmun va ma'no jihatidan o'quvchilar uchun tadqiqotli, qidiruv, muammoli metodlar majmuasi sifatida e'tirof etilishi kerak.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlardan o'quvchilarning loyihaviy faoliyatini tadqiqotli, qidiruv va muammoli metodlar asosida tashkil etishda raqamli ta'lim resurslaridan (RTR) foydalanish yaxshi samara beradi. RTR o'quv-uslubiy ma'lumotlarni vizual taqdim etishning zamonaviy vositasi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, loyihaga asoslangan ta'lim o'quvchi shaxsining barcha qirralarini, shu jumladan intellektual va hissiy qobiliyatini faollashtirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda loyiha metodi ta'lim sifatini oshirish va o'quvchi shaxsining intellektual, axloqiy va ijodiy rivojlanishini taminlashning maqsad va vazifalariga maksimal darajada yordam beradi. Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlardan loyiha metodini qo'llashda uning mavzusiga alohida e'tibor qaratish lozim. Mavzu o'quvchini o'ziga jalb etishi, uning moyilligi va qiziqishlariga javob berishi kerak.

O'quvchini ko'proq qiziqtirish uchun loyiha mavzusi muammo shaklida shakllantirilgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Muammoni hal etish jarayonida o'quvchi o'zining taktikasi va strategiyasini belgilaydi, vaqtini taqsimlaydi, zarur bo'lgan axborot-metodik resurslardan foydalanadi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va o'quvchi mustaqil faoliyatini maksimal darajada rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'lim tizimini sintez qilish o'quv jarayonini muvoffaqiyatli modernizatsiya qilishning muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bizning ilmiy tadqiqotlarimiz professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlardan loyiha metodini qo'llashda zamonaviy didaktik vosita sifatida e'tirof etilgan RTRning innovatsion imkoniyatlaridan foydalanish masalalariga bag'ishlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogikada loyiha metodi yangilik emas. U XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Loyiha metodining asosida amerikalik olim D.Dyuining - o'qitish faol tarzda amalga oshirilishi va o'quvchilar nazariy materiallarni amaliyotda qo'llashi kerak, degan g'oyalari yotadi.

Loyihalash jarayoni muammolari zamonaviy tadqiqotchilardan Ye.S.Polat [3], M.N.Guslova [4], I.A.Kolesnikovaning [5] ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

I.A.Kolesnikova loyiha deganda «ongli ravishda bo'lishi kerak bo'lgan faoliyatga yo'naltirganlik», – deb tushunadi [5:144].

N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raevlar tomonidan "loyiha" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: loyiha (lot. "projectus" – "ilgari surilgan") – aniq, reja, maqsad asosida uning natijalanishining kafolatlangan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsulidir [6:84].

Jahon pedagogik amaliyotida loyiha metodini o'quv jarayonida qo'llash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida, turli mamlakatlarda loyiha metodi spetsifikatsiyasi variantlari va uning maqsadli yo'naltirilganligining umumlashtirilgan ma'lumotlari 1-jadvalda keltirilgin.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda loyihaga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi

Mamlakat	Loyiha metodining yo'nalishi	Maqsad, muammoning qo'yilishi	Vosita, instrumentlarni tanlash
Finlyandiya	Ijtimoiy ko'nikmalar	Erkin tanlov	
Fransiya	Bozor manfaatlari	Bozor ehtiyojlari bilan belgilanadi	Maqsadlarga asoslangan
Avstraliya	Professional ko'nikmalar	Yangi o'quv vositalari bilan shartlanadi	Texnologiya/bozor bilan bog'liq
Xitoy	Ijtimoiy samaradorlik	Davlat manfaat-lari bilan belgilanadi	
AQSh	Ta'lim samaradorligi	Avvalgi loyihalar tajribasini tahlil qilishga asoslangan	

Shunday qilib, loyihaviy o'qitishni joriy etish bo'yicha ilmiy nashrlarni tahlil etish natijalariga tayangan holda, ta'kidlash mumkinki, ushbu metod dunyo bo'yicha turli ta'lim muassasalarida faol foydalanilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning nazariy metodologik asosini pedagogika ilmining ilmiy asoslari va yutuqlari, shuningdek nazariy bilishning umumilmiy prinsiplari – tizimli yondoshuv, umumlantirish, kuzatuv, tizimli va mantiqiy metodlar tashkil etdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning loyihaviy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) roli ko'p jihatdan ishlab chiqilayotgan mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Odatda, loyihaviy faoliyatda quyidagi dasturiy vositalardan foydalaniladi:

- 1) Ma'lumotlarni yig'ish, tadqiqot natijalarini qayd etish, ularni qayta ishlash va mahsulot taqdimotini tayyorlash uchun qo'llaniladigan amaliy dasturlar.
- 2) Loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni tashkil etish dasturlari.
- 3) Loyiha ustida ish olib boriladigan muhitni tashkil qilish dasturlari. Ushbu yo'nalishda AKT maqsadli va tizimli ravishda, ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi va loyiha mahsulotlarini ishlab chiqish uchun yagona muhit sifatida qo'llaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amaliy o'quv mashg'ulotlar davrida Buxoro viloyatining professional ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Yengil sanoat mahsulotlari konstruksiyasi va texnologiyasi" fanidan o'quvchilarning loyihaviy faoliyati fan bo'yicha ishlab chiqilgan RTRdan foydalangan holda tashkil etildi va uni quyidagi bosqichlar bo'yicha bajarish belgilab berildi.

Birinci motivatsiyali bosqich. Ushbu bosqichda ijodiy motivatsion muhitni yaratish uchun o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda dolzarb va qiziqarli mavzularni tanlash imkoniyati berildi. Mavzular jamoaviy muhokamadan o'tganidan so'ng, ularning nomlari aniqlashtirildi va kompyuter sinfida fan bo'yicha ishlab chiqilgan RTR hamda Internet saytlari tavsiya etildi.

Ikkinchi tayyorlov bosqichi. Loyiha g'oyasi ishlab chiqildi, yechiladigan masalalar, harakatlar rejasi hamkorlikdagi faoliyat usullari muvoffiqashtirildi va kichik guruhlar shakllantirildi.

Uchinchi axborot – operatsion bosqich. O'quvchilar kichik guruhlarda RTR ma'lumotlaridan foydalangan holda loyiha ustida ish olib bordilar. O'quvchilar tomonidan mavzu bo'yicha materiallar yig'ildi, barcha axborotlar qayta ishlandi va saralandi. Ushbu bosqichda o'qituvchi loyiha ustida ishning borishini kuzatib bordi, grafik asosida tavsiyalar berildi va maslahatlar tashkil etildi.

To'rtinchi baholovchi bosqich. Kichik guruhlar tomonidan loyihani himoya qilish tashkil etildi, natijalar jamoaviy muhokama qilindi, o'quvchilar loyiha natijalariga o'zlari baho berdilar. Ushbu bosqich o'zining muhimligi bilan boshqa bosqichlardan farq qiladi. Unda o'quvchining ilmiy yondoshuvi rivojlanadi, o'z yutuqlarini namoyon etish imkoniyati paydo bo'ladi.

Loyiha yakuni va natijalari. "Yengil sanoat mahsulotlari konstruksiyasi va texnologiyasi" fanidan o'quvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etish jarayonida ta'lim oluvchilar mustaqil

ravishda o'quv mashg'ulotlarida olgan nazariy bilimlarini amaliy masalalarni yechishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

XULOSA

Shunday qilib, o'quvchilarning "Yengil sanoat mahsulotlari konstruksiyasi va texnologiyasi" fani darslarida va darsdan tashqari mustaqil ta'lim faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda loyiha metodini joriy etish – ijodkor shaxsni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarini ochib beradi, ijodiy fikrlashga yordam beradi, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun, loyihaviy o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni shaxsni o'z-o'zini anglashi va namoyon etishi uchun katta imkoniyatlar yaratuvchi ta'limda innovatsion yondoshuv sifatida qarash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni//www.Lex.uz.
2. Kuvakina YE.S. Sushnost proyektnoy deyatelnosti, formirovaniye grajdanstvennosti i patriotizma u studentov sotsialnogo kolledja / YE.S. Kuvakina // Sotsialnoye obrazovaniye i sotsialnaya istoriya Rossii: opit izucheniya i problemi podgotovki kadrov dlya sotsialnoy sferi: sbornik materialov XIV Vserossiyskogo sotsialno-pedagogicheskogo kongressa. – M., 2014. – S. 176–177.
3. Polat YE.S. Noviye pedagogicheskiye i informatsionniye texnologii v sisteme obrazovaniya / YE.S. Polat. – M.: Akademiya, 2003. – 324 s.
4. Guslova M.N. Innovatsionniye pedagogicheskiye texnologii: ucheb. posobiye dlya stud. Uchrejdeniy sred. prof. obrazovaniya / M.N. Guslova. – 4-ye izd., ispr. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2013. – 288 s.
5. Kolesnikova I.A. Pedagogicheskoye proyektirovaniye / I.A. Kolesnikova, M.P. Gorchakova - Sibirskaya. – M.: Akademiya, 2005. – 288 s.
6. N.A. Muslimov M.H. Usmonboyeva, D.M. Sayfurov, A.B. To'rayev. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari". O'quv – metodik qo'llanma. –Toshkent: 2015. – 208 b.